



Formation of ecological culture of preschool children

Feruza BEKCHANOVA¹

Urgench State Pedagogical Institute

ARTICLE INFO

Article history:

Received October 2023

Received in revised form

15 November 2023

Accepted 25 November 2023

Available online

15 January 2024

Keywords:

preschool education
organization,
ecology,
environmental culture,
activity,
environment,
play,
work,
excursion,
society.

ABSTRACT

As is known, the current environmental situation and related problems pose a serious threat to humanity. Of particular concern is the broken connection between the environment and society. One of the key aspects of solving this problem is the formation of an environmental culture among members of society. It is advisable to begin this process already in preschool educational institutions. Before we begin to develop an environmental culture among preschoolers, it is necessary to provide them with environmental education, promoting the development of environmental awareness and knowledge, which will help them achieve their goals.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss10/S-pp89-93>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik madaniyatini shakllantirish

ANNOTATSIYA

Kalit soʻzlar:

Maktabgacha taʼlim
tashkiloti,
ekologiya,
ekologik madaniyat,
faoliyat,
atrof-muhit,
oʻyin,
mehnat,
ekskursiya,
jamiyat.

Mazkur maqolada hozirgi davrda ekologik vaziyat, ekologik muammoning insoniyatga xavf tugʻdirayotgan hodisalardan biri ekanligi hamda atrof-muhitning jamiyat bilan buzilgan aloqasi jamiyatimiz uchun katta tashvish keltirib chiqarayotgani, ushbu muammoning yechimlari haqida maʼlumotlar keltirilgan.

¹ Lecturer, Department of Preschool Education Methods, Faculty of Education, Urgench State Pedagogical Institute.

Формирование экологической культуры дошкольников

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

организация дошкольного образования, экология, экологическая культура, деятельность, среда, игра, труд, экскурсия, общество.

Как известно, текущая экологическая ситуация и связанные с ней проблемы представляют серьезную угрозу для человечества. Особую тревогу вызывает нарушенная связь между окружающей средой и обществом. Одним из ключевых аспектов решения этой проблемы является формирование экологической культуры среди членов общества. Начинать этот процесс целесообразно уже в дошкольных образовательных учреждениях. Прежде чем приступить к формированию экологической культуры у дошкольников, необходимо обеспечить их экологическое образование, способствуя развитию экологического сознания и знаний, что поможет достичь поставленных целей.

KIRISH

Kelajagimiz egalari bo'lgan yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash va ta'lim berish kabi mas'uliyatli vazifa maktabgacha ta'lim tashkilotlari vakillari bo'lgan tarbiyachi pedagoglar zimmasiga yuklatilgan. Tarbiyachilardan talab qilinadigan vazifalardan biri har bir mashg'ulot va faoliyatlarni zamonaviy tarzda, interfaol metodlardan foydalangan holda, qiziqarli o'yin va o'yinli texnologiyalardan foydalanib tashkil qilishdir. Ushbu vaziyat ta'lim va tarbiyada samaradorlikni ta'minlaydi. Davlatimiz rahbari tomonidan ham hozirda ta'lim tizimida islohotlarni keng ma'noda maktabgacha ta'lim sohasidan boshlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Sababi, bolalarga berilgan bilim, malaka, ko'nikmalarning ko'p qismini, ya'ni 70%dan ko'prog'ini maktabgacha bo'lgan davrida oladi. Shuningdek, hozirda jamiyatimiz a'zolari bilan sodir bo'layotgan muammolarning yechimi ham bolalarga maktabgacha yosh mobaynida beriladigan bilim, ma'lumot, malaka, ko'nikmalarni to'g'ri va tizimli berilishidir. Buni biz ekologik madaniyatni shakllantirish misolida ko'rib chiqamiz. Ekologik madaniyat haqida gap ketar ekan, ekologik madaniyat nimaligini bilib olishimiz lozim.

Ekologik madaniyat bu bizning har birimizni atrof-muhit bilan bog'liq yoki bog'liq bo'lmagan harakatlarimiz orqali ishtirok etishimiz ya'ni doimo g'amxo'rlik qilish, saqlashimizdir. Tarbiyalanuvchilarda ekologik tarbiyani shakllantirish bevosita atrof-muhitni o'rgatish bilan aloqadordir [1]. Shuningdek ushbu madaniyatning ta'rifidan ko'rinib turibdiki, u ekologik ta'lim bilan uzviy bog'liq yaxlit jarayondir va uni bir butun sifatida bilib doimiy o'qitish ishlarini olib borishimiz kerak va e'tiborli tarafi uning maqsadi tabiat, atrof-muhitning muammolarini izlaydigan, tan oladigan va yechim topadigan mas'uliyatli shaxslarni tarbiyalashdir. Ekologik madaniyat, ekologik ta'lim haqidagi fikrlarni ko'rib tahlil qilish orqali biz shuni bildikki, ularning asosi ekologik tarbiya ekan.

Biz bilamizki, tarbiyachi dasturda belgilangan bilim, malaka, ko'nikmalarni ta'lim tamoyillari asosida bolalar o'zlashtira oladigan darajada qiziqari qilib tashkil etishi kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish yo'llari:

Ushbu tabiat bilan tanishtirish yo'llari yetarlicha foydalidir. Ayniqsa ekskursiya juda ham samara beradi. Ekskursiyani biz bilamizki, Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalanuvchilarni tabiat bilan tanishtirishda ta'lim berishning tashkiliy formalaridan biridir. Ekskursiya ta'lim berishda samarali vosita sifatida e'tirof etilishining sababi, bolalar ekskursiya mobaynida tabiat, atrof-muhit to'g'risidagi aniq tasavvurga ega bo'ladilar va bu tasavvur quyidagilar orqali idrok etiladi:

- ko'rish;
- eshitish;
- sezish.

Ekskursiya jarayonida tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiat va undagi bog'liqlik, uning qonuniyatlar to'g'risidagi realistik tasavvurlarni hosil qilishga erishadi va bu bilimlar, tushunchalar vaqt o'tishi bilan bolalar egallaydigan ilmiy bilimlarining asosini tashkil etadi. Bu jarayon esa bolalar maktab ta'limiga o'tganlaridan keyingi o'rganiladigan tabiatga doir fanlarni o'zlashtirib olish uchun zamin hisoblanadi. Biz bolalarga tabiat bilan aloqa qilishni o'rgatishimiz kerak, sababi, tabiat bilan aloqa qilish zarurati bolaning ekologik madaniyatini shakllantirishning boshlang'ich nuqtasidir: bola tabiat bilan erta aloqa qilishi kerak va odatda u o'zini tabiatdan ajratmaydi va o'zini tabiatning bir qismi deb biladi[2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga ekologik tarbiya berish, ekologik ong, ekologik madaniyatni shakllantirishda tarbiyachilar tashkil qiladigan ishlar avvalo o'quv dasturiga asoslangan holatda olib boriladi va faoliyat mashg'ulotlari jarayonida buyuk alloma bobokalonlarimiz fikrlari va asarlaridan foydalanilgan holatda tashkillashtiriladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik madaniyatini shakllantirish ishlarini olib borish davrida tarbiyachilar sharq va g'arb mutafakkir, olimlarning quyidagi fikr va asarlardan foydalanishlari mumkin:

Muhammad Muso al-Xorazmiy o'z risolalarida quyidagicha ta'kidlagan edi: "Bilingki, dunyoning ko'zlari yoshlansa, uning boshiga g'am, kulfat tushgan bo'ladi. Odamlar, daryodan mehringizni darig' tutmanglar". Ushbu jumlaning bolalarga aytish orqali

ularida tabiatni asrab-avaylash, suvni isrof qilmaslik va bu yomon oqibatlarga olib kelishini tushuntiramiz. Shuningdek, allomaning “Kitob suratal-arz” degan asaridan foydalanilgan holda dunyo okeanlari, qit’alar, qutblar, gullar, tog’lar, daryo, dengizlar haqidagi eng sodda bilimlarni bera olamiz. Tabiiy resurslar nima ekanligi, ulardan qanday foydalana olish haqida tushunchalar berishimiz mumkin.

Abu Rayhon Beruniyning asarlari asosida bolalarga eng sodda koinot haqidagi bilimlar beriladi, koinot hodisalari va shu kabilar o’rgatiladi. Abu Rayhon Beruniy nafaqat koinot ustida ish olib borgan, balki tabiatshunos sifatida ham keng qamrovli tadqiqotlar o’tkazgan. Tabiatshunos olim sifatida Beruniy shunday fikr bildirgan, “Erkin va nasl qoldirish bilan dunyo to’lib boraveradi”. Alloma tibbiyotga doir ham “Satdana” asarini yozgan bo’lib, unda 1116 turdagi dori-darmonlarni tavsiflagan. Ularning 750 tasi esa minerallardan olinishini aniqlab bergan. Har bir o’simlik, hayvon va minerallarning xossalari, tarqalishi va shu kabi xususiyatlarini tavsiflab bergan.

Buyuk shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur ham tabiatga, tabiatshunoslikka, hayvonlarga e’tibor to’g’risida ko’plab fikrlarini o’zining “Boburnoma” asarida ko’rgan-kechirganlari, sayohatlari asosida yozib qoldirgan. Z.M. Bobur ajoyib botanik bo’lib, u o’simliklar haqida ma’lumotlar yig’gan va ularning o’sish muhitini o’rgangan.

Abu Nasr Farobiy ham tabiatshunoslikning turli tarmoqlari bilan shug’ullangan olim hisoblanadi. U tabiat va tabiatshunoslik haqida “Kitob qolhaji va al-Miqdor”, “Kitob al-mabodi al-insonia”, “Kalam fi azo al hayvon” kabi asarlar bitgan. Ushbu asarlarda odam va hayvonlar ayrim a’zolarining tuzilishi, xususiyatlari va vazifalari haqida, ularning o’xshashliklari va farqlari keltirilishi bilan birga asosiy anatomik-fiziologik tushunchalari yoritib o’tilgan.

Tarbiyalanuvchilarda ekologik tarbiyani shakllantirish, ekologik madaniyat tuyg’usini yaratish bevosita atrof-muhitni o’rgatish bilan aloqadordir.

Bolalarda tarbiya turini shakllantirishda muhim o’rin tutuvchi metodlar quyidagicha:

- pedagogik kuzatuv;
- suhbat;
- savol-javob metodlari.

Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik madaniyatini shakllantirish jarayonida quyidagi shakl va usullar alohida ahamiyatga ega:

- og’zaki va adabiy usullar (hikoyalar o’qish);
- bolalar o’yinlari;
- kuzatuv;
- elementar qidirish faoliyati;
- modellashtirish;
- ekologik faoliyat [3].

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yuqorida ta’kidlab o’tilgan metod, usul, uslublardan keng miqyosda foydalaniladi hamda ta’lim va tarbiya samaradorligiga erishiladi. Buning sababi juda oddiy, har qanday bilim takrorlashning mevasidir. Bolalar bilan takrorlash ishlari qiziqarli tarzda tashkillashtirilishi kerak, ularning diqqat e’tiborini biz qiziqarli bolalar faolligini ta’minlovchi metodlar bilan jalb qila olamiz..

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ushbu maqolada ekologik madaniyatni shakllantirish jarayoni va uning qanday muhimligini ko’rib chiqdik va ma’lum ma’noda ekologik madaniyat nima uchun kerakligini bilib oldik. Ekologiyamizda kuzatilayotgan muammolarning asosiy sababi bu

jamiyatimizda ekologik madaniyati shakllanmagan yoki nuqsoni bo'lgan insonlarning ko'pligidadir. Hozirgi kunda ekologiyaning yomonlashuviga insonlarning o'zlari sababchi bo'layotgani sir emas. Qadimda odamlarga ekologik ta'lim tarbiya berishda diniy tomondan qarashlar bilan ham, ya'ni shu yo'l bilan qo'rqitish orqali ekologiyani musaffoligini saqlashga harakat qilganlar va erishganliklari bizga tarixdan ma'lum. Bu diniy qarashlardan sanab o'tadigan bo'lsak, suvga tupurmaslik, suvga axlat tashlamaslik, chiqindi suvlarni yerga to'kish gunoh bo'ladi, degan fikrlarni aytib uqtirib kelganlar. Shuningdek, zardushtiylik dinining kitobi bo'lgan "Avesto"da ham muqaddas sanalgan to'rt unsur suv, olov, tuproq, havoga ijobiy munosabatda bo'lish, ulardan unumli foydalanish, isrofgarchilikni oldini olish haqida juda ham yaxshi tavsiyalar mavjud [4]. Demak, ekologik muammolarni bartaraf etishda biz avvalo maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION International scientific-online conference. TARBIYALANUVCHILARDA EKOLOGIK TUSHUNCHA VA EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASINING MODEL, SHAKLLARI, METODI VA VOSITALARI.87-bet.

2. Бекчанова, Ф. 2023. Значение наблюдения в экологическом воспитании дошкольников. Общество и инновации. 4, 2/S (фев. 2023), 122–125. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss2/S-pp122-125>.

3. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION International scientific-online conference. F.N.Bekchonova.TARBIYALANUVCHILARDA EKOLOGIK TUSHUNCHA VA EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASINING MODEL, SHAKLLARI, METODI VA VOSITALARI 86-bet.

4. N.M.Quchqarova Journal of Advanced Research and Stability. Tarbiyachilarga "Avesto"da iqtisodiy qarashlar va iqtisodiy tarbiya masalalarini o'rganish, 2-bet.